

## Sirdaryo viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha ma'lumot

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) **12 648** tani tashkil etdi, shundan 10 355 tasi yoki 81,9 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

Yil	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	12 648	10 450	10 355
2025	11 271	9 241	9 148
2024	12 823	10 651	10 591
2023	13 588	11 466	11 401
2022	16 254	14 169	14 102



Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shahrida – 24,7 foiz, Sirdaryo – 12,5 foiz, Mirzaobod – 9,1 foiz, Sardoba – 9,0 foiz va Boyovut – 8,7 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Yangiyer shahrida – 88,5 foiz, Sardobada – 87,5 foiz, Mirzaobod – 85,4 foiz hamda Oqoltin – 84,2 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar**

Hududlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>12 648</b>	<b>10 450</b>	<b>10 355</b>
Guliston shahri	3 123	2 564	2 537
Yangiyer shahri	941	833	826
Shirin shahri	297	232	228
Boyovut tumani	1 106	864	858
Guliston tumani	924	755	753
Mirzaobod tumani	1 145	978	966
Oqoltin tumani	798	672	669
Sayxunobod tumani	805	634	628
Sardoba tumani	1 141	998	992
Sirdaryo tumani	1 586	1 328	1 310
Xovos tumani	782	592	588

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

### Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning jami sonidagi ulushi 29,7 foizni tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 16,9 foizni, uchinchi o'rinda "Sanoat" 9,6 foiz. Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 56,2 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

Tumanlar	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
<b>Jami:</b>	<b>12 648</b>	<b>10 450</b>	<b>10 355</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 137	2 121	2 112
Sanoat	1 220	1 214	1 179
Qurilish	867	857	851
Savdo	3 760	3 760	3 742
Tashish va saqlash	296	294	294
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	780	778	776
Axborot va aloqa	226	215	214
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	321	161	156
Boshqa turlar	3 041	1 050	1 031

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 10 450 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 9 174 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi.

Tashkiliy-huquqiy shakli	2022	2023	2024	2025	2026
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	11 040	9 529	9 018	7 920	9 174
Xususiy korxonalar	2 425	1 373	1 117	911	872
Oilaviy korxonalar	346	238	304	265	258
Aksiyadorlik jamiyati	21	13	12	12	13
Boshqalar	337	313	200	133	133


Shundan kelib chiqib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
<b>Jami</b>	<b>10 450</b>	<b>100,0</b>
Mas'uliyati cheklangan jamiyati	9 174	87,7
Xususiy korxonalar	872	8,3
Oilaviy korxonalar	258	2,5
Aksiyadorlik jamiyati	13	0,1
Boshqalar	133	1,4

## III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e‘tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan 304 ta korxonalaridan 98 tasi qo‘shma korxonalar va 206 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.



### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2026- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida eng ko‘p faoliyat ko‘rsatayotgan yo‘nalishlar bu sanoat sohasidagi korxonalar soni 133 ta, savdo sohasida 54 ta va axborot va aloqa sohasida 42 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo‘shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>304</b>	<b>98</b>	<b>206</b>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	31	14	17
Sanoat	133	55	78
Qurilish	11	3	8
Savdo	54	15	39
Tashish va saqlash	8	5	3
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5	1	4
Axborot va aloqa	42	–	42
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	1	–	1
Boshqa turlar	19	5	14

### Davlatlarning ulushi mavjud bo'lgan faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 112 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi.

Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 36,8 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (11,8 %), Qozog'iston (7,9 %), Turkiya (7,9 %) va Tojikiston (6,9 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Xitoy	112	31	81
Rossiya	36	10	26
Turkiya	24	8	16
Tojikiston	21	6	15
Qozog'iston	24	13	11
Afg'oniston	18	7	11
Qirg'iziston	8	3	5
BAA	10	2	8
Buyuk Britaniya	8	4	4
Janubiy Koreya	9	3	6
Ozarbayjon	2	-	2
Pokiston	4	1	3
AQSH	4	2	2

#### IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

##### Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

##### Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)